

**BUXORO VILOYAT HOKIMLIGI XALQ TA'LIMI
BOSHQARMASI**

VILOYAT METODIKA MARKAZI.

"Ona tili fanini o'qitish jarayonida

noan'anaviy darslarni

tashkil etish shakllari "

***(Kogon shahridagi 7- maktabning ona tili va
adabiyotfan o 'qituvchisi Muazzam Nizomovanning
ish tajribasidan)***



Buxoro-2007yil

E'zozga loyiq.

Mustaqil O'zbekistonimizda qator sohalar rivojlanib, tafaqqiy etib bormoqda. Shu jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida o'tkazilayotgan islohotlar ta'lim-tarbiya va o'qitish usullarini bugungi talablar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Har qanday jamiyat o'zkelajagi bo'lgan farzandlarini jamiyattaraqqiyotiga, uning gullab yashnashiga o'z hissasini qo'shadigan munosib fuqarolar bo'libkamol topisMarida ota^pnalar bilan birgalikda ularga ta'lim-tarbiya berayotgan fidoyi o'qituvchilarning\ ham hissasi bor deb bilaman.

Hozirgi daw o'qituvchisi o'ta bilimli, izlanuvchan va o'quvchilarnijo'z faniga qiziqтира oladigan darajada, yuqoridagi islohotlarga amal qilgan holda, bir-biriga o'xshamagan rang-barang dars o'ta olishi o'quvchilarga bilim berayotganda interfaol usullaridan darsning qaysi bosqichida qanday turidan foydalana olishi •kerakligini bilishi lozim. Hozirgi kunda o'z burchini chuqur his qilgan o'qituvchilar soni kundan-kunga ortib bormoqda. __

Manashunday o'qituvchilar safidan Kogon shahridagi 7-maktabning ona tili va adabiyot tan o'qituvchisi Muazzam Nizamova ham o'rin egallagan. Muazzam Nizamova mana bir necha yillardan beri Kogon shahridagi 7-maktabda yoshlarga o'zi sevgan fani, ona tili va adabiyot fanidan dars berib kelmoqda.

Muazzam Nizamova bugungi kunda "Ona tili va adabiyot darslarida interfaol usullarni qo'llash samaradorligi" muammosini o'rganib, sho'ba yig'ilishlarida o'z ma'ruzalari bilan qatnashib kelyapti. U Darsda muammolarga nisbatan maqsad va vazifalarni tanlay oladi. Mavzuni o'tishda uning ilmiyligiga, tarbiyaviy mohiyatiga katta e'tibor beradi. Natijada o'qituvchi yutuq va samaradorlikka erishadi. Muallima yangi pedagogik texnologiyaning barcha usullaridan foydalanadi. Shahar gazetasining doimiy qatnashchisi. Uning «Alpomish» dostonida vafo, sadoqat talqini, «Iftixor» kabi maqola va badihalari gazetxonlar tomonidan iliq kutib olingan. She'rlari shahar gazetasida, «Buxoro muallimi», «Ma'rifat» gazetalarida tez-tez chiqib turadi. Umuman olganda, ijodkor o'qituvchi tinimsiz izlanishda. Orzulari ulkan bu muallimaga zafarlar yor bo'lsin deymiz.

Viloyat Metodika markazi

1-toifali mutaxassisi: O.Sirojova

Kompyuterda sahifalovchi: - D. Ro'ziyeva

Mazkur metodik tavsiya viloyat Metodika Markazi o'quv-metodika kengashining 2005 yil 28fevraldagi 1/5-sonli qarori bilan ommalashtirishga tavsiya qilingan

1-dars

Mavzu: Sifatlovchi-aniqlovchi.

Dars maqsadi: - o'quvchilarga sifatlovchi aniqlovchi mavzusida tushuncha berish.

- o'quvchilarni yatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.
- o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari, og'zaki va . yozma nutqini rivojlantirish.

Dars tipi: - umumlashtiruvchi takrorlash.

Dars turi: - tanlov

Dars materiallari va jihozlari: Mavzuga doir ko'rgazmali qurollar, 5-sinf ona tili darsligi, tarqatma materiallar, tabiat manzaralari tasvirlangan suratlar.

I-darsni tashkil qilish.

1-topshiriq.

O'quvchilar qo'llarini ko'ksiga qo'yib, O'zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasini kuylaydilar.

Madhiya: A. Oripov so'zi, M. Burhonov musiqasi.

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt najot. Sen o'zing do'stlarga
yo'ldosh mehribon! Yashnagay to abad ilmu-fan ijod.
Shunhrating porlasin toki bor jahon!

Naqorat

Shundan so'ng sinf o'quvchilari 3 guruhga bo'linadi. (Har bir guruh yana bir marta eslatiladi:)

"Istiqlol"-I guruh, "Xuro" - II guruh, "Do'stlik"-III guruh -deb nomlanadi.

Yurtdoshim, bu go'zal bog'ingga bir nihol qada,

Bu nihol nomini qo'zallik ata.

Sendan farzandingga yaxshi bog' qolsin,

Bu bog'ing "Vatan" degan nom olsin, ey, do'st.

Topshiriq: Ushbu she'rdagi aniqlovchilarni toping.

I guruh: bu go'zal-bu (qaysi?)

II guruh: yaxshi (qanday?)

III guruh: bu nihol - bu (qaysi?) aniqlovchi bo'lib kelgan.

Topshiriq: Shu so'zlaryordamida 1 tadan og'zaki gap tuzing.

I guruh: Bu (qaysi?) go'zal diyorumiz gullabyashnasin!

II guruh: Yaxshi (qanday?) inson yurt tuzar- yomon inson yurt buzar.

III guruh: Bu (qaysi?) niholni otqazdingmi, Azamat?

(Quruhlar rag'batlantiriladi)

II-topshiriq:

154-mashq. (Mashq shartiga amal qilib bajariladi)

Mashq shartiga ko'ra sabr, bilim, mehr so'zlari ishtirokida gaplar tuzing. Ularda aniqlaydichilardan foydalaning. Har uchchala guruhdan bittadan o'quvchi yozuv doskasiga mashq shartiga ko'ra 1-2 tadan gap yozadi va o'qituvchi yordamida tahlil qiladilar. I-guruh: - Biziabrli (qanday?) bo'lishimiz kerak.

Ot-sifat

II-guruh: - bilimli kishi xor bo'lmas.

Fe'1-ot-sifat

III-guruh:-tabiatga, atrof-muhitga mehrli bo'laylik! Ot-sifat

Eng topqirlar guruhini aniqlash uchun o'qituvchi shunday savolni o'rta tashlaydi: 1) Aniqlaydich, deganda nimani tushunasiz? Misol keltira olasizmi? "Do'stlik" guruhi a'zolari hozirjavoblik bilan javob berishdi.

Hokim bo'lakdan anglashilgan narsaning qandayligini, kimga yoki nimaga qarashli ekanligini bildirib, qanday? qanaqa? qaysi? qancha? nechta? kimning nimaning? so'roqlariga javob bo'luydich gap bo'lagiga aniqlaydich deyiladi.

1-o'quvchi:

Misol: Ali - qanoatli (qanday?) bola

2-o'quvchi: Vali - qanoatsiz (qanday?) bola.

III. o'quvchi: Bekzod -intizomli (qanday?) o'quvchi.

- «Xumo» guruhi:

1-o'quvchi: Men chiroyli (qanday?) ko'ylak tikdim.

2-o'quvchi: men kelajakda yaxshi chevar bo'laman.

3-o'quvchi: Don achchiq-ta'siri shirin.

4- o'quvchi: Men kelajakda yaxshi shifokor bo'laman.

O'quvchi: "Qanday?" so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar orqli so'z birikmalari tuzing.

- "Istiqloq guruhi:

Qizil olma, chiroyli gul, oppoqparda, qadrli ota-ona, hurmatli do'st.

O'qituvchi: o'quvchilar, siz keltirgan misollarda sifatlovchi-aniqlaydich ham bor ekan.

Qizil olma, oppoq parda, chiroyli gul-narsaning belgisini bildirib kelyapti, shuning uchun bu sifatlovchi-aniqlaydichdir.

O'quvchi: Aniqlaydich ishtirok etgan hikmatli so'z ayting.

"Do'stlik" guruhi: Odobli bola-elga manzur.

O'qituvchi tomonidan guruhlarning bilimlari nazorat qilib boriladi va darsda aktiv ishtirok etgan o'quvchilar baholanib boriladi. (Baholar ramziy belgilar bilan ifidalanadi).

"5" baho-nok,

"4" baho-anor,

"3" baho-ohna-bilan shakllaridir.

(Mavzu shu baholar orqali boshqa fanga bog'lanadi)

II-yangi mavzuning bayoni

O'qituvchi sifatlovchi-aniqlovchiga doir ko'rgazmani doskaga iladi.

1. Kelajakda Vatanimning sodiq farzandi bo'lishiga harakat qilaman.
2. Sinfimizda a'lochi o'quvchilar ko'p
3. vatanimiz tinchligi va osoyishtaligini yovuz (qanday?) niyati kimsalardan asraylik!

O'quvchilar yuqoridagi gaplarni daftarlariga ko'chirm oladilar.

O'qituvchi yangi mavzuni quyidagicha bayon etadi:

Hokim bo'lakdan anglashilgan narsaning belgisini bildirib, "qanday?" "qanaqa?" "Qaysi?", "qancha?" so'roqlariga javob bo'lgan aniqlovchiga sifatlovchi - aniqlovchi deyiladi.

Misol: Birsoatlik yaxshi (qanday?) dars: yirik (qanday?) bir asardir.

Sifatlovchi-aniqlovchiga doir topshiriq va

mashqlar bajarish.

O'qituvchi sinfdagi bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarga darslikdagi 1 va 2-topshiriqlarni tarqatma materiallar orqali bo'lib beradi.

1-o'quvchiga. Tarqatma N1

Nuqtalar o'raiga quyida berilgan so'zlarning sifatlovchi-aniqlovchilarini topib yozing. .

....gul,olma.

2-o'quvchiga. Tarqatma N 2 .

Nuqtalar o'rniga sifatlovchi-larni topib yozing.

...uy, ...ko'cha.

3-o'quvchiga. Tarqatma N 3

Odobli....

Quyida berilgan kataklarni qanday? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarning sifatlovchi-aniqlovchilarini topib yozing.

Guruhlarga topshiriq:

I-guruhga: 155-mashqni bajarish topshiriladi

II-guruhga: 156-mashqni bajarish topshiriladi
III-gurahga: 157-mashqni bajarish topshiriladi

Guruhlar javobi:

"Istiqlol" guruhi: 155-mashq (og'zaki)

Matnni o'qing: mavzuni so'zlab berishga tayyorlaning. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qanday so'roqqa jayob berishini aniqlang.

Uzoq (qancha?), bu (qaysi?), jiddiy (qanday?); bepoyon (qanday?), serunum (qanday?), beg'ubor (qanday?), musaffo (qanday?) (Topshiriqni bajargan o'quvchilar baholanadi)

"Xumo" guruhi: 456-mashq.

Hayvonlar, qushlar hamda o'smiliklar dunyosiga munosabatingizni ifodalab bir nechta gap tuzing.

Ularda sifat, son, olmosh bilan ifodalangan sifatlovchi, aniqlovchilarni qo'llang. O'sha (qaysi?) tabiat manzarasi ko'z oldimdan ketmaydi. Qirlarda qip-qizil (qanday?) lolalar ochilgan. Rahimjon oyisiga bir datsa (qancha?) lola berdi.

"Do'sflik" guruhi: 157-mashq:

Sifatlovchi-aniqlovchilarni topib? Izohlang.

Uzoq, bulutli, nam, sovuq, tez-tez, bu, qattiq, yomg'irli, iliq.

O'qituvchi yana topqirlar uchun o'rta savol tashlaydi.

Savol: Ekologiya deganda nimani tushunasiz.

Javob: Ekologiya-bu "eko"-uy, atrof, muhit, "lokos"-ian. Ya'ni, atrof-muhit haqidagi fan.

Savol: Ekologik tarbiya nima.

Javob: Bolani atrof-muhit, tiriklikka, bir-biriga mehrli qilib tarbiyalash ekologik tarbiyadir.

Savol: Ekologiyani buzmaslik uchun nimalar qilish kerak.

Javob: Tevarak-atrof toza, ozoda bo'lsa ekologiya yaxshi bo'ladi.

Jug'at diktant

Odobli, yoqimli, qanoatli, beg'ubor, serunum, musaffo aqlli, bulutli, iliq, sovuq.

(10 taso'z)

O'qituvchi: -Lug'at diktantidan sifatlovchi-aniqlovchilarni toping va ostiga chizing.

O'qituvchi o'quvchilarga bir necha savol bilan **murojaat** qiladi va yangi mavzuni xulosalaydi.

Dars yakunidan oldin o'qituvchi guruhlar o'rni va darsda faol qatnashgan o'quvchilarni baholaydi va ramziy belgilarni tarqatadi.

(Eng yaxshi guruh qatnashchisiga ramziy belgilar-nok, anor, olma rasmi sovg'a tariqasida beradi)

Uyga vazifa:

Tabiat manzarasini tasvirlab matn yaratish va sifatlovchi-aniqlovchi gapda qatnashtirish kuzatiladi.

2-dars.

9d.avzm "Lebsibgfogiya" bo'limi bo'yicha

mustahkamlash darsi

Darsning maqsadi: - o'qituvchilarning leksikologiya bo'limi bo'yicha olgan bilim, malaka va ko'nikmalarini mustahkamlash.

o'quvchilarni ona yurt, tabiatga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash

o'quvchilarning savodxonligini oshirish ularni, tog'ri va chiroyli yozishga ularni o'rgatish, yozma nutqini o'stirish.

Oslub: Musobaqa.

Fihoz: rasmlar, tarqatma savollar, boshqotirma.

DTS talablari: takrorlash; savol va topshiriqlar ustida ishlash.

Darsrejasi:

1. Leksikologiya bo'limi bizga nimani o'rgatadi?
2. Ma'nodosh so'z haqida ma'lumot bering.
3. Shakldosh so'zlar haqida nimani bilasiz?
4. Zidma'noli so'zlar haqida o'quvchilar fikri.

1-Darsning borishi: Dars "Leksikologiya bo'limiga sayohat" o'yini tarzida o'tkaziladi. O'qituvchi ishtirokchilarni 4 guruhga ajratadi. (Barcha savol, boshqotirma, grammatik o'yinlar oldindan tayyorlab qo'yiladi)

- 1-topshiriq:** 1) Tilshunoslik fanining Leksikologiya bo'limida nimalar o'rganiladi?
- 2) Bir ma'noli vako'p ma'noli so'zlar haqida ma'lumot bering.
 - 3) Olinma so'zlar haqida nimalarni bilasiz?
 - 4) Tasviriy ifoda jiima?
 - 5) Shevaga xos so'zlarni qatnashtirib gaplar tuzing.

2-topshiriq: To'rtlikni o'qing "ot" so'zining qanday ma'nolarda kelayotganini tushuntiring. Harbiriga bittadan gap tuzing.

Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,

Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.

Nasihatim yod qilib ol, farzandim, Yolg'iz yursa, chang chiqarmas, yaxshi ot.

(Fozil Yo'ldosh og'li)

(Tuyuq janri, shakldosh so'zlardan foydalanilgan)

3-topshiriq:

Tush va qo'y soz'larini qatnashtirib, to'rtta gap tuzing. Bunda har bir so'z ikki gapda ishlatilib, 2xil ma'noni bildirsin.

4-topshiriq:

Sinf doskasi yoniga 2 o'quvchi chiqadi. Birinchi o'quvchi ijodiy ma'noga, ikkinchi o'quvchi salbiy ma'noga ega bo'taan iboralarga misol keltirshi kerak.

1-o'quvchi:

Tilidan bol tomadi
Boshi osmonga yetdi

2-o'quvchi:

Ilonning yog'ini yalagan
Tarvuzi qo'ltig'idan tushdi.

5-topshiriq:

Quyidagi tasviriy ifodalarni daftaringizga ko'chirib yozing va ularga izoh bering.

Mo'yqalam sohibi-rassom Salomatlik posboni-

Charm qa'lpoq ustasi-Hayotimiz qomusi-

(Aktiv qatnashdan o'quvchilar baholanadi) II. darsning asosiy qismi: "Ma'nodosh so'zlar" haqida ma'lumot bering.

1-iopshiriq:

Quyidagi savol va topshiriqlarga javob bering.

1)Qanday so'zlar ma'nodosh so'zlar deyiladi?

2)«o'zning ma'nodoshlarini tushuntiring va ular ishtifokida gaplar tuzing.

3)Ma'nodosh so'zlardan foydalanishning biror ahamiyati bormi?

2-topshirtq:

514-mashq. "Xalq" so'zini uning ma'nodoshi bilan almashtiring

3-topshMq: Quyidagi boshqotirmanini yeching. Unda joylashtirilgan so'zlarning ma'nodoshlarini topib, ular ishtirokida gaplar tuzing.

N	O	A	R	U	Y	T
---	---	---	---	---	---	---

Darsning II bosqichi: (ona yurt)

O'quvchilarga quyidagi savol va topshiriqlar beriladi.

1-topshiriq:

Quyidagi savollarga javob toping

- 1) Shakldosh so'zlar deb qanday so'zlarga aytiladi?**
- 2) Shakldosh so'zlar ko'p ma'noli sozlardan qanday farq qiladi? »**
- 3) Shakldosh so'zlardan qanday she'riy janrda qo'llaniladi?**

2-topshiriq:

495-niashq.

Quyidagi berilgan shakldosh so'zlarning ma'nodosh so'zlardan farqni tushuntiring. Bog'lar- bog'lar, ko'zlar- ko'zlar, chang-chang, rang-rang tut, tush, va hokazo.

3-topshiriq:

Quyidagi savollarga javob bering.

- 1. Zid ma'noli so'zlar haqida ma'lumot bering.**
- 2. Sifat so'z turkumiga kiruvchi zid ma'noli so'zlarni toping.**
- 3. Ot so'z turkumiga kiruvchi zid ma'noli so'zlar haqida ma'lumot bering.**

III-Mustahkamlash.

Dahtaringizga zid ma'noli soz'lar ishtirok etgan maqol yozing va sintaktik

tahlil qiling.

O'qituvchi dars davomida o'quvchilar bilimni berilgan vazifalarni bajarishlariga qarab balli sistemada baholab boradi, hamda vazifalarni tez va to'g'ri bajargan, gurohlarni rag'batlantiradi. Dars davomida yaxshi ishtirok etgan o'quvchilar ham baholanadi.

IV. Uyga vairfa:

Yangi mavzuga tayyorlanib kelish.

3-dars

9-sinfona tili

Mavzu: Kesim tobe gapli qo'shma gaplar.

Maqsad: - o'quvchilarning mavzu haqidagi bilim va malakalarini shakllantirish.

- ularni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash
- fanga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish.

Dars tipi: yangi bilimlar berish, bilimlarni sinash.

Dars turi: izlab o'rganish, mustaqil ijodiy faoliyat, siriov.

Darsda qo'lanadigan interfaol «sullar: qulay testlardan foydalanish,

o'z-o'zini nazorat qilish.

I. Darsni tashkil qilish:

O'qituvchi "Qulay testlardan foydalanish" interfaol usulidan foydalanib, o'tilgan mavzuni so'rashi mumkin. O'qituvchi o'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida 30 ta test tayyorlaydi, har bir testda 5 savol bo'ladi. 10 test bir xil va bu 10 testga 1 raqami qo'yiladi. 2 o'nta test bir xil bo'lib, 2 raqami qo'yiladi. 3 o'nta test bir xil bo'lib, 3 raqami hammasiga qo'yiladi. Test sinovi bilan birgalikda raqamlar qo'yilgan varaqa tarqatiladi, o'quvchilar ismi shariflarini yozib, belgilab o'qituvchiga beradilar. O'qituvchida ham 3 ta test javobi raqamlar asosida bor bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilardan javob varaqasini olib o'z qo'lidagi test javobini ustiga qo'yib, nechta test javobi to'g'ri, nechta test javobi xato ekanligini tezda aniqlashi mumkin. (O'tilgan mavzuni o'quvchilar qanday o'zlashtirgani aniqlanadi.)

II. Asosiy qism:

Yangi mavzuning bayoni: "O'z-o'zini nazorat qilish" interfaol usuli orqali bajariladi.

1- topshiriq:

83-mashqni 3- qator o'quvchilari 3-topshiriq asosida bajaradilar.

1-qator o'quvchilari hokim va tobe gaplarini aniqlashlari, qaysi gapning kesimi nimaga ishora qilayotganligini bilishga harakat qilishlari shart.

Masalan : Yutug'imiz shundaki, har bir xodim o'z vazifasini biladi va uni vijdonan bajaradi.

Ona tilini maktabda o'qitishdan maqsad, o'quvchilar mustaqil fikrlashni o'rganishsin, ona tilining cheksiz imkoniyatlaridan unumli foydalana olishsin.

2- qator o'quvchilari 2- topshiriq asosida mashqni bajarishadi.

Mashq sharti:

Kesim tobe gapli qo'shma gapni kengaygan sodda gapga aylantiring.

Masalan: Yutug'imiz shundaki, har bir xodim o'z vazifasini vijdonan bilishidadir.

O'quvchilar mustaqil fikrlashi,ona tilining keng imkoniyatlaridan foydalanishlari uchun maktablarda ona tili fahri o'qitilmoqda.

3-qator shu mashqni 3-topshiriq asosida bajarishadi. Hokim va tobe gaplarning bog'lanishi haqida ma'lumot berishlari kerak. Masalan: -Hokim va tobe gap

- ki, -kim, ergashtiruvchi bog'lovchi yordamida bog'lanayotganligini aytishadi.

2-topshiriq:

84-mashqni sinf o'quvchilari-birgalikda bajaradi.

Yo'zing:

Kengaygan kesimli sodda gaplarni kesim ergash gapli qo'shma gapga aylantiring.

Euqarolik burchimiz shundaki, O'zbekiston qonunlariga to'la-to'kis amal qilamiz.

Otaning farzand oldidagi qarzi shundaki, unga yaxshi nom qo'yish, hunar o'rgatish, mustaqil hayotga tayyorlashdir va hokazo.

Mashqning shartiga amal qilib to'g'ri bajargan o'quvchilar baholanadi.

3-topshiriq:

"Matbuot materiallaridan foydalanish" interfaol usullaridan foydalanib mavzuni mazmunli o'zlashtirish mumkin.

O'qituvchi har bir partaga gazeta va jurbal boshqa materiallar beradi. O'quvchilar shu man'balardan 3 tadan kesim tobe gapli qo'shma gaplarni topib daftarlariga ko'chirishlari mumkin.

(Qaysi o'quvchi topshiriqni to'g'ri, bexato bajargan bo'lsa, o'qituvchi tomonidan baholanadi)

III. Mustahkamlash.

Bir partada o'tirgan ikki o'quvchining biri ikkinchisiga shu mavzuga doir savol beradi, partadoshi o'rtog'ining savollariga javob berishi kerak. O'qituvchi nazoratida bu topshiriq bajariladi.

Masalan: Birinchi partadagi 1-o'quvchi o'rtog'iga savol beradi.

-A. Navoiy haqida kesim tobe gapli qo'shma gaplar tuzing.

-Javob.

- A. Navoiy me'rosining abadiyligi shundaki, shoir yaratgan asarlar asrlar osha jamiyat bilan hamnafasdir.

Xuddi shundayhar birpartadagio'quvchi o'z. o'rtog'i bilan savol-javob qilishi mumkin. (Oqituvchi ularni baholab boradi)

IV. Uyga vazifa

O'quvchilar bilim va malakasiga mos ravishda topshiriq beriladi.

4-dars

Mavzu: *Oybekning hayoti va ijodini o'rganish*

Maqsad: O'quvchilarni buyuk mutafakkir Oybek ijodi va hayoti haqidagi bilim, malakalarini yanada kengaytirish

- o'quvchilarni mustaqil fikriashga, o'z fikrini dalillar bo'yicha asoslashga q'rgatish.

- o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, hamkorlikda ishlay olish qobiliyatini shakllantirish, bir-biriga o'zaro hurmatini oshirish

Dars uslubi: interfaol usullardan foydalangan holda musobaqa darsi.

Dars jihozi: texnik vositalar, m'agnitafon, 9-sinf" adabiyot darsligi, ko'rgazmalar va "savol varaqasi.

Darsning borishL

Dars Shoiri Dildora Raximovaning "Oybek nidosi" she'ri bilan boshlanadi.

Oybekman-yuragida qayg'usi bisyor

Oybekman-bir ko'rmasa oy vasliga zor. :

Oybekmn-xalqi uchun kuylab baxtiyor -

Sizga o'z o'tmishimdan keltiray ash'or. Sinf o'quvchilari guruhlarga bo'linadi, har

bir guruhga nomi beriladi.

- "Navoiy" guruhi
- "Bobur" guruhi
- "Mashrab" guruhi

O'qituvchi: Qani o'quvchilar fikrimizni jamlash, tilimizni charxlash uchun "aqliy hujum" musobaqasini boshlaymiz.

1. Qaysi ijodkor turkiy til bilan Xitoydan Xurosongacha o'lkalarni jangu-jadalsiz zabt etganligini ta'riflaydi?

Javob: Alisher Navoiy.

2. Turkiy "Xamsa" qachon va kim tomonidan yaratilgan?

Javob: 15-asrning 2-yarmida A. Navoiy tomonidan yaratilgan.

3. Laff va nashr nima? Javob: Yig'ish va yoyish

4. Mashrab so'zining ma'nosi nima? Javob: - Ilohiy sharobga erishmoq.

5. "Kishan", "Qalandar ishq" g'azallari qanday vaznda yozilgan? Javob: - Aruz vaznida

(3 ta guruhga 15ta savol beriladi va guruh g'oliblari aniqlanadi.

Guruhlarhing uchalasi ham g'olib bo'lganligi uchun ularga 10 balldan beriladi, dars davomida eng ko'p ball to'plagan guruh g'olib deb topiladi.

Yangi mavzuning bayonu

Yangi mavzu bo'yichakirish suhbatini .otkaziladi 3-guruhga 3 tadan savol beriladi.

-birinchi "Alisher Navoiy" guruhi a'zolari sevimli adibimiz haqida to'plagan ma'lumotlarini bayon etadilar. .

XX asr o'zbek adabiyoti tarixini bezab turgan qutlug' nomlar orasida Muso. Toshmuhammad o'gli Oybek nomi alohida hurmat va e'tiborga sazovor. Oybekning mashaqqatli hayoti va ijodini tashvishli asrning qariyb barcha talotumlari chetlab o'tmagan va adib asarlarida o'zining yorqin ifodasini topgan....

Ikkinchi "Zaxriddin Bobur" guruhi a'zolari davom ettiradilar. Oybek bor- o'g'i 63 yil umr ko'rdi. Ammo shunga qaramay, u o'zbek adabiyoti tarixida piri Alisher Navoiydan keyin eng ko'p va samarali ijod qilgan ulug' shoir, adib, tarjimon va ohm sifatida o'rin egallaydi.

Abdul la Qahhor qalamkash birodarining 60 yilligi munosabati bilan quyidagi so'zlarni bejiz yozmagan edi:

- "Yozuvchining umri yil bilan o'lchanmaydi, ijodiy faoliyatining samarasi bilan o'lchanadi. Oybek 400 yilga to'g'ri keladigan 40 yillik ijodiy faoliyatining bir lahzasini ham samarasiz o'tkazgani yo'q. Oybek bu jihatdan ham hozirgi va kelajak adabiy avlod qarshisida ustod bo'lib g'aydalanadi."

Uchinchi "Mashrab" guruhi a'zolari Yangi mavzuni davom ettirib to'ldiradilar.

- Shubhasiz 40 yillik ijodini 4000 yilga to'g'ri keladi, - desak arziydi. Oybekning hayoti qanday tikanli va xatarli yo'llardan o'tgan, o'zi esa qanday zulm va kulfatlarni boshidan kechirgan bo'lmasin, u iste'dodi mevalarini xalqqa to'la-to'kis bag'ishladi. Tinimsiz ijod qildi. Ijod qilganda ham, o'zbek adabiyotining shoh asarlaridan bin bo'lgan "Qutlug' qon" romanini yaratdi.

Ko'p asrlik o'zbek adabiyotiga bugimga qadar faqat ulug' adibnigina 20 jildidan iborat asarlari nashr etilgan. Bularning biri-Alisher Navoiy, ikkinchisi esa Oybekdir...(vahokazo)

Uchchla guruh ham to'g'ri ma'lumotlar to'plab, tushunarli va aniq fikr orqali yozuvchining hayoti va ijodi haqida to'liq ma'lumot berganligi uchun taqdirlanadi.

Endi guruhlarga navbatdagi topshiriq beriladi. Bu topshiriq orqali o'quvchilarning adib hayoti, ijodi haqidagi bilimlari sinovdan o'tkaziladi.

Yangi pedagogik texnologiya asosida "interfaol" usullardan bin "KLAUSTER"dan foydalanamiz: "

Uchala guruh ham toza qog'oz olib istagan xilda "klaster" chizmasini chizadilar.




O'qitish andozasining 1-bosqichini" boshlaymiz. "Klaster" o'quvchilarni mavzu haqida erkin, ochfq tarzda fikr yuritishga yordam beradi.

"Klaster" fikrlashning to'g'ri chiziqli bo'lmagan shaklidir.

"Klaster" bo'lish juda oson va tez eslab qolinadi.

Ta'lim-passiv emas, balki faol faoliyatdir. Bu bosqichda o'quvchilarning qiziqishi uyg'onadi, zarur savollar tug'iladi va bilimlarni egallash uchun_ sabablar shakllanadi

Klaster




Guruh o'quvchilari O'zlari tuzgan "Klaster" jadvali asosida mutafakkir ijodi haqida batafsil ma'lumot beradilar.

Guruh ma'lumotlari solishtiriladi va gumhlar rag'batlantiriladi. Guruh o'quvchilariga 4 topshiriq beriladi. Topshiriq yangi mavzuni hamda o'tilgan mavzularni ham mustahkamlashga katta ahamiyatga egadir. Bu topshiriq ham interfaol usullardan bid "BENN" diagrammasidan foydalanish bilan boshlanadi.

"BENN" diagrammasida ikkita yoki uchta shoir yozuvchining o'xshash va farqli tomonlari tahlil qilinadi.

Tanqidiy fikrlashning 2-bosqichi "BENN" diagrammasi mavzusidagi asosiy ma'noni anglashga yordam beradi. "BENN" diagrammasini tuzish uchun guruhdan ham, juftlikdan ham foydalanish mumkin, alohida-alohida berilsa ham bo'ladi.



Uchala guruhning ham diagrammalari sinf doskasiga ilib qo'yiladi.

Guruhlar baholanadi.

O'qituvchi 4-topshiriqni yakunlab, 5-topshiriqni topshiradi.

Endi, azizo'quvchilar, bilim va malakalarni umumlashtirish uchun

"Sinkveyn" (oq she'r) yozish usulidan foydalanamiz. Bu 5 qatorlik she'rda Oybek hayoti va ijodini qamrab oluvchi ma'lumotlar beriladi. : ;

"Oq she'r" yozish uchun:

1. -Ot tanlanadi.
2. - Ikkita sifat tanlanadi
3. - Uchta fe'l tanlanadi
4. - His-hayajonli gap (to'rtta so'zdan iborat bo'lishi kerak)
5. -Birinch so'zning sinonimi tanlanadi

"Navoiy", "Bobur", "Mashrab" guruhlar sevimli yozuvchimiz Oybek haqida "Sikveyn" tuzishga kirishadilar.

Guruhlar o'zlari yozgan she'rlarini ifodali o'qib, xulosalaydilar.

Oybek

Iste'dodli, fikri jo'shqin.

O'qidi, yaratdi, nom qoldirdi. Poeziyada-prozaik, prozada shoir Oydanda go'zal (Guruhlar baholanadi)

O'qituvchi 5-shartni yakunlab, qatag'on yillarida adabiyotimizning A. Qodiriy,

Cho'lpon va Fitratdek darg'alari yo'qotilgandan. so'ng, ularning asarlarini o'qish ham siyosiy jinoyat hisoblanganligi, adabiyot olamiga bir bo'shliq paydo bo'lganda Oybek oldida marhum ustozlar o'rini egallash vazifasi turganligini aytadi.

Oybek o'z oldiga tarix tomonidan qo'yilgan bu vazifasini sharaf bilan bajardi.

1. O'qituvchi: mavzuni o'qituvchi yakunlab, g'olib guruh aniqlandi.